

OILAVIY TADBIRKORLIKNING IJTIMOIIY PSIXOLOGIK O‘ZIGA XOSLIGI

Satvaldiev Azizjon Ahmadjonovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Andijon fakulteti ma’naviyat va yoshlar
ishlari bo‘yicha dekan o‘rinbosari psixologiya
fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Mamlakat Prezidenti 2018 yil 8 iyun kuni imzolagan “Har bir oila – tadbirkor” dasturini amalga oshirish to‘g‘risida”gi qaror ham oilaviy tadbirkorlik, hunarmandchilik, kasanachilik va boshqa tadbirkorlik faoliyati turlarini keng ommalashtirish, har bir oilaning barqaror daromad manbaiga ega bo‘lishi uchun shart-sharoitlar yaratish va ishsizlikka barham berishni maqsad qilgan.

Rejaga ko‘ra, dastur olis, tabiiy-iqlim sharoiti og‘ir hududlarda aholining moddiy sharoitlarini tubdan yaxshilash, turmush tarzi sifati va darajasini oshirishga xizmat qilishi kerak. Tadbirkorlik bilan shug‘ullanish istagida bo‘lgan aholining tashabbuslarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularga imtiyozli kreditlar ajratish hamda ishbilarmonlik faoliyatini tashkil etish va amalga oshirishda amaliy yordam ko‘rsatish belgilangan.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida uy xo‘jaligining namoyon bo‘lish shakli oila bo‘lib, unga tegishli xususiyatlar oilaga ham tegishli bo‘ladi. Oila qarindoshlik aloqalari va maishiy hayot umumiyliги asosida ongli ravishda tashkil etilgan kishilarning kichik guruhidir. Oilaning hayot faoliyati shaxsning, u a‘zo bo‘lgan oilaning va jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy-ma’naviy ehtiyojlarini ro‘yobga chiqarish maqsadida amalga oshiriladi.

Amaliy hayotda oila ko‘pchilik hollarda erkak va ayolning o‘zaro juftlashishidan iborat bo‘lib, u o‘zining uy xo‘jaligini mustakil ravishda yuritadi. An‘anaga ko‘ra, oila nikohdan boshlanadi. Iqtisodiyot nazariyasi nuqtai nazaridan, nikohlar erkak va ayolning bir-biriga mosligini aniqlaydigan "bozor"da shakllanadi. Samarali bozorda erkak va ayolning bir-birlariga mosligi nazariyasi asosida o‘zaro tanlashlari yuz beradi. Oilada har bir tomon ochik yoki bilvosita holda ma‘lum majburiyatlarni o‘z zimmalariga oladilar. Bunda ular tomonlarning huquq va imtiyozlarini tan oladilar.

Nikohni, iqtisodiy nuqtai nazardan, har qanday firma yoki tashkilot nizomiga o‘xshatish mumkin. Xuddi tashkilotda bo‘lgani kabi oilaning o‘ziga yarasha hayot kechirish qonun-qoidalari vujudga keladiki, ular cheklangan yoki moslashuvchan bo‘lishi mumkin. Shuningdek, oilani investitsiya loyihasiga o‘xshatish mumkin. Chunki birmyncha vakt o‘tgach, ushbu nikohdan ma‘lum natija, samara olish ko‘zda tutiladi.

Oilada kishilar xatti-xarakatlari ratsional bo‘lib, nikohning nafiligi bilan ziyonligi va xarajatlarini takkoslaydilar. Shuningdek, oila aktivlariga bo‘lgan mulkiy munosabatlar ham hisobga olinadi. Oilaning va nikohning afzalliklari uning qanday mahsilot va xizmatlar yaratish qobiliyati bilan ifodalanadi. Ular esa kuyidagilardan iborat:

- er-xotinning oilada, nikohda mahsilot, ne‘mat yaratish, ishlab chiqarish qobiliyatidan kelib chiqadigan nafliklar. Ularga qonuniy tugilgan bolalar, obro‘- e‘tibor, oila maqomi va hokazolar kiradi;

- oila alohida uy xo‘jaligi sifatida faoliyat yuritib, yuqori unum va samarali tarzda mahsilot va xizmatlar ishlab chiqaradi. Oila uchun ishlab chiqarilgan va mavjud mahsilot hamda xizmatlarning kypchiligi ijtimoiy, ya‘ni jamoat ne‘matlari hisoblanadi, Chunki ular oilaning barcha a‘zolari uchun naf keltiradi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida oilaning iqtisodiy roli murakkab va ko‘p qirralidir. Oila uy xo‘jaligini, oilaviy biznesni yuritish, ishchi kuchini takror ishlab chiqarish, iste‘mol

talabini zarur darajada ta’minlash, investitsion salohiyatni yaratish va boshka ko‘plab masalalarni hal qilishi lozim bo‘ladi. Bularni inobatga olgan holda bozor munosabatlari tizimida oilaning umumiy iqtisodiy vazifalarini quyidagicha ifodalash mumkin:

- oilaning yangi ehtiyojlarini va imkoniyatlarini shakllantirish;
- oilaning iqtisodiy vazifalarini amalga oshirish uchun zarur sharoitlarni yaratish va rivojlantirish;
- oilaning ijtimoiy-iqtisodiy mavqeini oshirish;
- oilaning normal maishiy hayot kechirish sharoitlari va ijtimoiy qo‘llab quvvatlashni ta’minlash.

Bu erda oilaning ijtimoiy-iqtisodiy mavqei tushunchasi integral ko‘rsatkich bo‘lib, oilaviy munosabatlarda davlatning ijtimoiy-siyosiy tuzilishi xususiyatlari, uning huquqiy asoslari, iqtisodiy rivojlanish darajasi, madaniyati va ijtimoiy ongini o‘zida ifodalaydi.

Oila uy xo‘jaligini yuritib, resurslar bozoriga ishchi kuchi (mehnat), kapital va tabiiy resurslar, tadbirkorlik qobiliyatini etkazib beradi. Uning evaziga ish xaqi, foyda, foiz, renta shaklida pul daromadlari oladilar. Bu daromadlarni iste‘mol xarajati sifatida ishlatib, o‘zlariga kerakli bo‘lgan mahsulot va xizmatlarni harid qiladilar. Shuningdek, oila tadbirkorlik bilan shugullanib, firmalar tashkil qiladi. Oilalar tashkil qilgan firmalar resurslar bozorida iqtisodiy, ishlab chiqarish omillarini xarid qilib, ular asosida mahsulot va xizmatlar ishlab chiqaradilar hamda ularni iste‘molchilarga sotadilar. Bozor iqtisodiyoti sharoitida oila, avvalambor, inson kapitalini shakllantirish va jamg‘arishning asosiy bug‘ini hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, oilaning vazifalarini uch bosqichda, ya’ni moddiy asosni yaratish, ta’lim, inson kapitalini ishlab chiqarish va realizatsiya qilishda ko‘rish mumkin.

Birinchi bosqichda oilaning moddiy asosi yaratiladi.

Inson kapitalini ishlab chiqarish uchun normal sharoitlarni yaratish;

Oila buydjetini shakllantirish va ishlatish;

Uy xo‘jaligini yuritish; Inson kapitalini ishlab chikarish;

Farzand ko‘rish;

Sotsiallashtirish (ijtimoiylashtirish);

Rekreatsioon funksiya;

Inson kapitalini ryyobga chikarish;

Bozor xo‘jaligida yakka tartibda qatnashish;

Bozor iqtisodiyotida korporativ shaklda qatnashish;

Oilaviy biznesni tashkil etish;

Uy xo‘jaligini yuritish;

Inson kapitali harajatlarini qoplash va jamg‘arish;

Oilaning inson kapitalini shakllantirish bilan bog‘lik, vazifalaritini shakllantirish va undan foydalanish, uy xo‘jaligini yuritish funksiyalari amalga oshiriladi.

Ikkinchi bosqichda oila farzandni dunyoga keltirish, tarbiyalash va uni ijtimoiy-iqtisodiy hayot kechirish sharoitlariga moslashtirish vazifalarini bajaradi. Buning uchun moddiy resurslarr, mahsylot va xizmatlar zarur bo‘ladi.

Uchinchi bosqichda tadbirkorlik faoliyati va mehnat qilish orqali oila bozor xo‘jaligida oila a’zolarining individual, ya’ni yakka tartibda ishtirok etishini ta’minlaydi, oilaviy biznesni tashkil etadi. Shuningdek, oila bozor iqtisodiyotida korporativ shaklda ham ishtirok etadi, uy xo‘jaligini yuritadi, daromad oladi va taqsimlaydi. Oilaning barcha funksiya va vazifalari o‘zaro bog‘lik bo‘lib, inson kapitalini yaratish bilan bog‘lik xarajatlarni qoplash, jamg‘arishga maqsadli yo‘naltirilgan bo‘ladi.

Barcha oilalarga xos bo‘lgan umumiy vazifa iste‘mol vazifasi bo‘lib, u uy ruzg‘or xo‘jaligini yuritishni talab qiladi va mehnat resurslarini tayyorlash bilan bog‘lik bo‘ladi. Bu xo‘jalik oilaning umumiy mulkiga va topgan daromadiga tayanadi. Yuqorida aytib o‘tganimizdek, oila nikohdan boshlanadi. Bunda kuyov va kelin tomoni iqtisodiy

munosabatlarga kirishadi. Turmush qurishning o‘z xarajatlari va foydasi bo‘ladi. Harajat ham iqtisodiy, ham ma’naviy mazmunga ega. Iqtisodiy xarajat bu turmush qurishning moddiy pul sarfi bo‘lib, kelin va kuyovning o‘zaro tanishishi, ularni unashirish, to‘yni o‘tkazish, quda andachilik rasm-rusumlarini o‘tkazish, yosh oila mulkini shakllantirish xarajatlari bo‘lib, uni har ikki tomon ko‘taradi. Bu sarflar miqdori kelishuv asosida va baholi qudrat belgilanadi.

Moddiy sarflar oilaning dastlabki mulki uy-ro‘zg‘or asbob-anjomlari va jihozlarini tashkil etadi. Bular uzoq davr ishlatiladigan mahsulotlardan iborat bo‘lib, oilaning mulki hisoblanadi. Oila mulki dastlab ulushbaychilik qoidasiga binoan (har ikki tomon hissasiga qarab) shakllansa, so‘ngra oila umumiy daromadining jamg‘arilishi asosida ko‘payib boradi. Oila qurishning ma’naviy xarajati - oila majburiyatining zimmasiga tushishi, so‘qqaboshlik davridagi erkinlikni yo‘qotish, oila a‘zolari ra‘yiga qarab ish qilish, ya‘ni "ozodlikdan maxrum" bo‘lishdir.

Oilaning foydasi shundaki, uy xo‘jaligini yuritish uning a‘zolari o‘rtasida taqsimlanib, mehnat unumi ortadi, Chunki har bir oila a‘zosi ma‘lum ishni bajarishga ixtisoslashib, uni yaxshi ijro etadi. So‘qqaboshlikda xo‘jalik yuritish og‘ir kechsa, oilada bu ish engil kechadi. Oila iste‘molida ham tejamlilik bo‘ladi, Chunki bir qator buyumlar birgalikda ishlatiladi va ulardan samarali foydalanish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Satvaldiyev A. Personal and social psuchological factors of female managers //scientific and technical journal machine building. – 2022.
2. Satvaldiev A. A. Jenskoe liderstva v predprinimatelstve segodnya //“xxi asr psixologiyasi” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjymani maqolalar to‘plami. – 2021. – s. 215
3. Satvaldiyev A. Usloviya i resheniya dlya jennin predprinimateley segodnya //scienceweb academic papers collection. – 2020.
4. Satvaldiyev A. Gendernie voprosi v uzbekistane //scienceweb academic papers collection. – 2020.
5. Satvaldiyev A. The role of women leaders in small business and private entrepreneyrship //international journal of formal education. – 2022.
6. Satvaldiyev A. Rahbarning kasbiy mahorati //scienceweb academic papers collection. – 2021